

YANGI ISTIQBOLLI O'SIMLIKLARNI IZLAB TOPISH USULLARI

Po'latov Sarvar Mustafoyevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Agrobiologiya va dorivor o'simliklar yetishtirish kafedrasini mudiri, q.x.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. Xalq tabobati (xalq va an'anaviy tibbiyot)ning asosiy dorivor vositalarini dorivor o'simliklar tashkil qiladi. insonlar qadim zamonlardan beri o'simliklardan dorivor vosita sifatida foydalanib kelganlar. Chunki ular o'z atrofidagi tabiatda o'zlariga zarur bo'lgan ovqat, ichadigan suvni qidirib topganlaridek, tinchlik bermayotgan kasalliklariga davo qidirishlari, ularning tabiiy talablari bo'lgan. Ushbu maqolada O'zbekistonda yangi istiqbolli o'simliklarni izlab topish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Istiqbolli o'simliklar, yovvoyi holda o'sadigan, yetishtiriladigan dorivor o'simliklar, fitopreparatlar, madaniylashtirilgan dorivor o'simliklar.

Абстракт. Лекарственные растения являются основными лекарственными средствами народной медицины (народной и традиционной медицины). Люди использовали растения в качестве лекарств с древних времен. потому что необходимую им пищу и питьевую воду они искали в окружающей их природе, и естественной их потребностью было искать лекарство от своих болезней, не дающих им покоя. В данной статье представлена информация о путях поиска новых перспективных растений в Узбекистане.

Ключевые слова. Перспективные растения, дикорастущие и культурные лекарственные растения, фитопрепараты, культурные лекарственные растения.

Annotation. Medicinal plants are the main medicinal products of folk medicine (folk and traditional medicine). People have been using plants as medicine since ancient times. because they looked for the food and drinking water they needed in the nature around them, and it was their natural demand to look for a cure for their diseases that did not give them peace. This article provides information on ways to find new promising plants in Uzbekistan.

Key words: Promising plants, wild and cultivated medicinal plants, phytopreparations, cultivated medicinal plants.

Xalq tabobati inson atrofini o'rab turgan o'simliklar dunyosi uning kasalliklarini davolashda asrlar davomida birinchi va eng oson topiladigan birdan-bir yagona shifobaxsh vositasi bo'lgan. Masalan, qadimgi xalqlar tabobatida ham dorivor vosita sifatida avvalo o'simliklardan, so'ngra hayvon mahsulotlari va mineral moddalardan foydalanganlar. «Bu o'rinda, chamasi jamoa qozonlarida inson

organizmiga (kasal va sog'lom holatida) tonuslovchi, mustahkamlovchi, tozalovchi va kuch beruvchi ta'sirlarni ko'rsatish maqsadida ovqatlarni tayyorlashda o'simliklardan keng foydalangan tajribasi o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa kerak».

Demak «Dorivor o'simliklarni ishlatish butunlay insoniyat jamoasining tajribasi bo'lgan», shuning uchun «tibbiyot boshlanishida hammani, har bir kishining vazifasi bo'lgan, faqatgina ko'p bo'lmagan qobiliyatlilarni kasbi bo'lgan». Insoniyat madaniyatining eng qadimgi yozma yodgorliklarining ko'rsatishicha inson tomonidan dorivor vosita sifatida o'simliklardan foydalanish tarixi juda qadimiy va albatta yozuv paydo bo'lishdan oldin boshlangan. Shuning uchun ham inson o'zini-o'zi o'simlik yordamida davolagan vaqtini aniqlash qiyin. Chamasi u ibtidoiy odam bilan tengdir. Ehtimol er yuzida inson iaydo bo'lishidan ancha burun ba'zi o'simliklarni shifobaxsh xususiyatlaridan hayvonlar «foydalanganlardir».

Haqiqatdan ham ba'zi farmakologik faol ta'sirga ega bo'lgan o'simliklarni hayvonlar iste'mol qilgan hollar tarixda ma'lumdir. Assuriyada topilgan eng qadimgi -sopolga bitilgan birinchi yozma manbalarda xam dorivor o'simliklar to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan. Assuriyalilar dorivor o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini yaxshi bilganlar, ulardan davolanish maqsadida foydalanganlar. Assuriyalilar dorivor o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z navbatida asosan shumerlar va bobilliklardan olganlar, keyinchalik bu ma'lumotlar assuriyaliklardan misrliklarga o'tgan. Eramizdan -miloddan 4000 yil avval misrliklar -Misrning dorivor o'simliklari mantiqiy tasvirini tushirganlar. Yevropada qadimiy tibbiyot sifatida yunon tibbiyotini qabul qilshgan.

U dunyo tibbiyoti rivojiga o'zining juda katta ta'sirini ko'rsatgan va insoniyatga Buqrot, Dioskorid va boshqalar kabi buyuk namoyandalarni bergan.

Yunonlarning bu sohadagi muvaffaqiyatlari rimliklar tomonidan, so'ngra sharqda - Suriya va Eronda qabul qilingan. Bu erda yunon kitoblari arab tiliga tarjima qilinmadi, ulardan nusxalar ko'chiriladi, qayta ishlab chiqiladi va ularga ilovalar yoziladi. Yevropa tibbiyoti esa o'z navbatida Misr, Vavilon va Assuriyaning eng qadimgi ananaviy madaniyati bilan chambarchas bog'langan va shular asosida fan taraqqiy etgan Gretsiya sivilizatsiyasining samarasidir. Bu borada Ovrupa tibbiyoti yuqorida aytib o'tilgan davlatlarni an'anaviy madaniyati ta'sirida taraqqiy etgan arab tibbiyoti kabidir. Hozirgi O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari territoriyasida joylashgan davlatlarning tibbiyoti xam, ularni arablar bosib olgaidan so'ng shu yuqorida zikr etilgan yutuqlar va an'analar asosida hamda ta'sirida taraqqiy qilgan. Shuning uchun ham Yevrupada Abu Ali Ibi Sinoni arab tibbiyot maktabining buyuk namoyandasi deb hisoblaydilar.

Insonlar avvalo o'z atrofida o'sadigan o'simliklardan dorivor vosita sifatida foydalanganlar. SHuning uchun xar qaysi erning dorivor o'simliklari bo'lgan. Uzoq vaqtlar davomida bu dorivor o'simliklar xayot sinovidan o'tganlar, saralanganlar va

eng samaralilari to'g'risidagi ma'lumotlar shu er (shu xudud)ning o'zida og'zaki avloddan avlodga o'tgan. Qachonki xalqlar orasida aloqalar tuzilib, mollar almashina boshlangandan so'ng dorivor o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlar ham bir xalqdan ikkinchisiga o'ta boshlaydi. Bu esa har bir erning dorivor o'simliklar assortimentini xam erli flora turlari, ham chetdan kelgan o'simliklar hisobiga boyishga olib keladi.

Hozirgi kunda an'anaviy tibbiyot (xalq tabobati) xalq zakovati bilan sug'orilgan juda boy va ulkan tajriba bilimlar majmuasidir. U ilmiy (rasmiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyituvchi bitmas tuganmas manbadir. Xalq tabobatining bu sohadagi qimmat, tutgan o'rni bebahodir. Buning uchun misol tariqasida hozirgi zamon tibbiyotida qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklarni ko'pchiligi o'z vaqtida xalq tabobati dorivor vositalar xazinasidan olinganligini yoki hozirgi zamon ilmiy tibbiyotining o'zi xalq tabobati asosida taraqqiy etganini eslash kifoyadir.

O'zbekiston xalq tabobatida ishlatiladigan va Respublikada yovvoyi holda o'sadigan hamda o'stiriladigan o'simliklardan bir qanchasining farmakologik ta'siri va kimyoviy tarkibi chuqur o'rganildi. Natijada ularning ayrimlari rasmiy tibbiyotda dorivor vosita sifatida ishlatish uchun ruxsat etildi va ishlatilmoqda.

1-jadval

O'zbekiston florasidan ilmiy tibbiyotga joriy qilingan yangi dorivor o'simliklar

1	Oddiy isiriq	Peganum harmala L.
2	Turkiston arslonquyruq'i	Leonurus turkestanica
3	Turkiston adonisi	Adonis turkestanica Adolf.
4	Teshik dalachoy	Hypericum perforatum L.
5	Dag'al dalachoy	Hypericum scabrum L.
6	Regel qo'ziqulog'i	Phlomis regeli Willd.
7	Gulbandli kiyik o'ti	Ziziphora pedicellata Pazij et Vved.
8	Gangituvchi bozulbang	Lagochilus inebrians Rgl.
9	Mayda gulli tog'rayhon	Origanum tyttanthum Gontsch
10	Dorivor tirnoqqul	Calendula officinalis L.
11	Sertuk xandeliya	Handelia trichophylla (Shrenk)
12	Samarqand bo'znochi	Helichyrisum maracandicum M.Pop.
13	Do'lana turlari	Crataegus sp.
14	Itburun na'matak	Rosa canina L.
15	Sariq andiz	Inula grandis Schrenk.
16	Danakli oqquray	Psoralea drupacea Bge.
17	Anjir	Ficus carica L.
18	Makkajo'xori	Zea mays L.
19	Ketma-ket gulli termopsis	Thermopsis alterniflora
20	Qalampir yalpiz	Mentha piperita L.

21	Mayda qirqilgan bargli ferula	Ferula tenuisecta L.
22	Viktor ungerniyasi	Ungernia Victoris Vved.
23	Tubulg'ibargli bo'yumodaron	Achillea filipendulina Lam.
24	Dorivor qashqarbeda	Melilotus officinalis Desr.
25	Itsigak	Anabasis aphylla L.
26	Tik o'suvchi bo'rigul	Vinca erecta Rgl. et Schmalh.
27	Parpi	Aconitum soongoricum Stapf.
28	Jut	Corchorus olitorius L.
29	Otquloq	Rumex confertus Willd.

Oddiy isiriq, Turkiston arslonquyrug'i, Turkiston adonisi, teshik (oddiy) dalachoy, dag'al dalachoy, Regel qo'ziqulog'i, gulbandli kiyiko't, gangituvchi buzulbang, maydagul tog'rayhon va soxta yantoq o'simliklarining o'ti (yer usti qismi), dorivor tirnoqgul, sertuk xandeliya va Samarqand bo'znochi gullari, do'lana va itburun na'matak mevalari, sariq andiz va danakli oqquray ildizlari (er osti organlari), anjir bargi va makkajo'xori onalik ustunchasi og'izchasi bilan, termopsis va boshqalar shular jumlasidandir

Keyingi bir necha o'n yillar davomida butun dunyoda tibbiyot sohasida o'simliklarga, ayniqsa, xalq tabobati dorivor o'simliklariga bo'lgan qiziqish tobora oshib bormoqda. Ko'pchilik ilmiy markazlarda o'simliklar har taraflama va chuqur o'rganildi va natijada bir qancha yangi, yuqori samarali fitopreparatlar yaratildi.

1960-1990 yillar ichida sobiq Ittifoq davlatida 100 dan ortiq fitopreparatlar yaratildi va tibbiyot amaliyotiga joriy etildi. Shulardan bir qismi yuqorida aytilganlarga dalil sifatida bu erda keltirildi: avisan, aymalin, alanton, askorutin, asmatin, befungin, beosid, gindarin, gossipol, kaleflon, kardiovalen, qarotolin, kellin, konvaflavin, laminarid, linetol, mukaltin, novoimanin, pastinatsin, plantaglyusid, raunatin, rozevin, rutin, salvin, solsolidin, flakorbin, floverin, xlorofillipt, esflazid va boshqalar. Xalq tabobatida ko'llaniladigan dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqishning oshib borishi va ularni o'rganish faqat o'z tibbiyotida qadimdan an'anaviy ravishda ko'plab dorivor o'simliklar qo'llab kelgan davlatlar (Hindiston, Xitoy, Vetnam, Birma, Filippinga, arab davlatlari, boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, Afrika davlatlarida)gina emas, balki kimyoviy sintez yo'li bilan ko'plab dorilar olishi mumkin bo'lgan kimyo -farmatsevtika sanoati yaxshi taraqqiy etgan davlatlarda ham kuzatilmoqda.

Adabiyotlar

1. Dusmuratova F.M., Tuxtayev B.E. Introduksiya i metodi vozdelivaniya Atropa belladonna L. // Uzbekskiy biologicheskiy jurnal. – Tashkent, izd. Fan Akademii nauk RUz. 2007. – S. 57-60.

2. Dusmuratova F.M. Atropa belladonna ning biomorfologik xususiyatlari. //Sovremennye problemy strukturnoy botaniki. Materialy respublikanskoj nauchnoj konferensii. – Tashkent, 2010. – S. 39-41.
3. Dusmuratova F.M., Tuxtayev B.E. Atropa belladonna L.ning introduksiya sharoitida o‘stirilishi // Xorazm Ma‘mun Akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan yosh olimlarning xalqaro ilmiy konf., Xiva 2006. 214-215 b.
4. Dusmuratova F.M. Rost i razvitiya Atropa belladonna L. v usloviya Uzbekistan. //Biologiya Nauka XXI veka. 13-ya Pushinskaya mejdunarodnaya shkola-konferensiya molodix uchuennix. 28 sentabr-2 oktabr. Pushina 2009. s. 227-228
5. Po‘lativ S.M. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent. Zuxra Baraka biznes MChJ. 2023-yil.